



XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI QARORI

2021 - yil 3 - avgust

VI-38-20-4-58-K/21

Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo'lgan nomsiz ko'chalarga nom berish va ko'cha nomini o'zgartirish to'g'risida

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo'lgan nomsiz ko'chalarga nom berish va ko'cha nomini o'zgartirish to'g'risidagi Qamashi tuman hokimligiga MFY raislari tomonidan kiritgan iltimosnoma xati, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2021-yil 18-martdagi 2-son va 2021-yil 27-iyuldagi 4-son yig'ilish bayonlari, Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish to'g'risida 2021-yil 26-martdagi va 2021-yil 28-maydagi takliflari, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2021-yil 31-maydagi 11/1623-son va 2021-yil 07-iyuldagi 11/2057-son xulosalari, "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 10-moddasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha Qashqadaryo viloyat komissiyasining 2021-yil 31-maydagi 11/1623-son va 07-iyuldagi 11/2057-son xulosalariga muvofiq Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo'lgan nomsiz ko'chalarga nom berish va ko'cha nomini o'zgartirish to'g'risidagi taklifi va Qamashi tumani hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (Ro'ziyeva)ning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tumanida nom berilayotgan geografik obyektlarning ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qamashi tumani Mayda mahallasidagi Yorqin ko'chasining nomi Mayda deb o'zgartirilsin.

4. Qamashi tumani hokimining o'rinbosari, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limiga (Bekmurzayev) bir hafta muddatda tuman hududidagi nomlari o'zgargan geografik obyektlarning nomlarini zamonaviy ko'rinishda peshlavhalarga yozib o'rnatish, aholi o'rtasida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini o'tkazish vazifasi yuklansin.

5. Tuman ichki ishlar bo'limi (Meyliyev) yangi nom berilgan va nomi o'zgargan hududda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e'tibor qaratsin.

6. Ushbu qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosari (Haydarov), Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi raisi (Omonova) zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Кенгаш раиси



Б.Тоғаев

Халқ депутатлари Қамаши туман
кенгашининг
2021 йил 3 августдаги
VI-38-20-4-58-К/21-сон қарорига
1-илова

Qamashi tumanida nom berilayotgan geografik obe'ktlarning ro'yxati

№	Mahalla fuqarolar yig'ini nomi	Aholi punkti nomi	Obyekt turi	T/R	Ko'cha nomi			
1.	Mang'it MFY	Shahar hududi	Ko'cha	1.	Abu-al-Muti an- Nasafiy			
			Ko'cha	2.	Jaloliddin Rumiy			
			Ko'cha	3.	Uvaysiy			
			Ko'cha	4.	Nabi Rahimov			
			Ko'cha	5.	Komil Yormatov			
			Ko'cha	6.	Nabi G'aniyev			
			Ko'cha	7.	Hamza Umarov			
			Ko'cha	8.	G'ani A'zamov			
			Ko'cha	9.	Botir Zokiriov			
			Ko'cha	10.	O'tkir Hoshimov			
			Ko'cha	11.	O'rikzor			
			Ko'cha	12.	Yurtdosh			
			Ko'cha	13.	Olchazor			
			Ko'cha	14.	Toshkent yo'li			
			Ko'cha	15.	Lalmiobod			
			Ko'cha	16.	Yoshlar			
			Ko'cha	17.	Labihovuz			
			Ko'cha	18.	Buyuk Turon			
			Ko'cha	19.	Xalqlar do'stligi			
			2.	Navoiy MFY	Shahar hududi	Ko'cha	20.	Vatandosh
						Ko'cha	21.	Manzilobod
3.	Jonbo'z MFY	Jonbo'z qishlog'i	Ko'cha	22.	Paxtazor			
			Ko'cha	23.	Hunarmand			
4.	Kattao'ra MFY	Kon	Ko'cha	24.	Yuqori Jonbo'z			
			Ko'cha	25.	Namuna			
5.	Sarbozor	Sarbozor	Ko'cha	26.	Tarannum			
			Ko'cha	27.	Sangzor			
			Ko'cha	28.	Elbegi			
			Ko'cha	29.	Mirobod			
			Ko'cha	30.	Eskianhor			
			Ko'cha	31.	O'rnak			
			Ko'cha	32.	Bog'i Eram			
	Qirqqiz	Ko'cha	33.	Tokzor				